

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GASTRONOMIK TURIZMNING
RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA VUJUDGA
KELUVCHI MUAMMOLARGA TAKLIFLAR**

Nasriddinova Dilnura

Student, Department of Tourism, Kimyo International
University in Tashkent dilnura.nasriddinova@icloud.com
+998903982555

Nurmatova S.Sh

Supervisor: Kimyo International University in Tashkent
Senior lecture of Tourism Department
Sitara-nurmatova@mail.ru
+998977510731

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turizm sohasining yo'nalishlaridan biri bo'lgan gastronomik turizm haqida fikr yuritilgan. Maqola davomida gastronomik turizmning aynan o'zi nima ekanligi va u hozir bizning davlatimizda qay darajada rivojlanyotgani, shu bilan birga qanday taraflama oqsayotgani haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: gastronomik turizm, agroturizm, Fransiya, Bolgariya, shahar gastronomik turizmi

Kirish

Jahondagi har qanday mamlakat hayotini turizm xizmatidagi tasavvur etib bo'lmaydi. Turizmning esa turlari ko'p. Ularning har biri ahamiyatlilik jihatidan bir-biridan muhim. Masalan, mamlakatimiz mustaqilligi tufayli ziyorat turizmiga keng yo'l ochildi. Joylardagi tarixiy, madaniy, ma'rifiy sohalarga tegishli bo'lgan obidalar, yodgorliklarga ekskursiyalar tashkil etish, ular orqali milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni keng o'rganish, targ'ib qilish taomilga kirdigina emas, davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yil sayin mamlakatimizga tashrif buyurayotgan ziyoratchilar, sayyohlar soni osha bordi. Natijada O'zbekistonimizning dong'i doston bo'ldi, ellararo shuhrati taraldi.

Mutaxassilarning fikricha, yurtimizga kelayotgan har bir xorijlik sayyoh o'rtacha 1000 AQSh dollari miqdorida foyda keltirar ekan, bu turizmning qanchalik



daromadli ekanidan dalolat beradi. Samarqand, Buxoro, Xiva va yana bir qator qadimiy shaharlarimizga kelayotgan sayyohlar misolida fikr yuritsak, turizmni rivojlantirish zarurligini his etamiz va istiqboli porloq sohaning buguni kechasidan qanchalik farqli, qanchalik zavqli, ertasi esa yanayam oydin ekanini o‘ylab ko‘ngillarimiz quvonchga to‘ladi.

Turizmning kechasi, buguni, ertasi haqida fikr yuritar ekanmiz, uning barcha turlarini rivojlantirish davr talabi ekanini o‘ylaymiz. Deylik, gastronomik turizmni olaylik. Turizmning bu turiga alohida e‘tibor qaratmasdan, uning bugungi turmushimizdagi ahamiyati haqida to‘xtalmasdan bo‘lmaydi. Negaki, turizmning har bir turiga bo‘lgan ehtiyoj yildan yilga oshib borayapti. Ayniqsa, gastronomik turizm salohiyati tobora yuksalayapti. Buni joylardagi xizmatning bu turiga qiziqishning qay darajada ekanligidan ham anglash mumkin. Aytish kerakki, hududlarimizda odamlar gastronomik turizmning afzalliklarini allaqachon anglab yetishgan. Aslida uni ota-bobolarimiz o‘z zamonalarida rivojlantirishgan. Sababi esa juda oddiy bo‘lgan. Chunki, yurtimizga o‘sha davrlardayoq xorijlik sayyohlar kelishgan. Bunda Buyuk ipak yo‘lining yurtimizdan o‘tgani muhim ahamiyat kasb etgan.

Mavzuning o‘rganganlik darajasi

Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy. Aslida gastronomik turizm nima? U xizmat ko‘rsatishda nimalarga asoslanadi? Bu xizmat xalqimizning manfaatdorligiga qay darajada ta‘sir o‘tkazyapti? Umuman uning natijalarini nimalarda anglash mumkin? Avvalo, turizmning bu turi nima sababdan gastronomik turizm yoki oshxonona turizmi deb atalishiga e‘tibor qarataylik. Bunda ushbu sohaning turizmning asosiy turlaridan biri ekaniga e‘tibor qaratish zarur. Uning asosiy maqsadi sayyoramizning ma‘lum bir mamlakatida sayohat qilish asnosida o‘sha davlatning milliy oshxonasi va ovqatlanish madaniyati bilan ham yaqindan tanishish va xizmatidan bahramand bo‘lishdir.

Gastronomik sayyoh o‘zi sayohat qilayotgan hududi ish madaniyati bilan ham yaqindan tanishadi. Gastronomik sayyoh birinchi navbatda madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan an‘anaviy taomlarni tayyorlash jarayoni, dasturxonga tortish usullari, ovqatlanish tartibi va pozitsiyalarini ko‘rish va bilish barobarida sayohat qilayotgan davlatning tarixini, iqtisodiyotini, siyosati hamda mahalliy aholining e‘tiqodlarini, urf-odatlarini o‘rganadi.

Olimlarimiz bugun gastronomik turizmni ilmiy jihatdan asoslab berishayapti. U odatda ikki turga bo‘linadi:



1. Agroturizm – dala (qishloq) gastronomik turizmi. Bunda sayohat qilayotgan davlatning ekologik toza mahsulotlari (meva va sabzavotlar, poliz mahsulotlari, uzumchilik) ni, hosilni yig‘ish yoki qadoqlashni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish va mahsulotlarni tatib ko‘rish tushuniladi. Bu holatdan chorvachilikni ham ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. Bilamizki, go‘sht, sut, asal kabi qishloq xo‘jalik mahsulotlarisiz to‘kin dasturxonimizni tasavvur etib bo‘lmaydi.

2. Shahar gastronomik turizmi. Sayyohlikning bu turi mahalliy mahsulotlarni qayta ishlaydigan va ishlab chiqarish korxonalarini, milliy taomlar tayyorlaydigan ovqatlanish shoxobchalarida va boshqa joylarda bo‘lishni, sayohat davrida ularni o‘rganish va tatib ko‘rishni o‘z ichiga oladi. E‘tibor qarataylikki, qishloq xo‘jalik mahsulotlari qishloqda ishlab chiqariladi va aksari hollarda shag‘arda qayta ishlanadi, tayyor mahsulotga aylantiriladi. Keyingim yillarda esa qishloq va shahar o‘rtasidagi bunday tafovut sezilarli darajada bir-biriga yaqinlashib borayapti. Shu tomonlama “shahar gastronomik turizmi” nomida o‘ylab ko‘rishga to‘g‘ri kelar. Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada ilmiy yo‘nalishni to‘laqonli ochib berish uchun kuzatish va tahlil qilish usullaridan foydalanilgan. Mavzuni to‘liq holda ochib berish uchun turizmning boshqa tarmoqlariga ham to‘xtab o‘tilgan.

Tahlil va natijalar

Hozirgi vaqtda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida gastronomik turizm rivojlangan. Misollarga murojaat etaylik: Fransiya va Bolgariya davlatlaridagi uzumchilik va vinochilik taraqqiyotini butun dunyo biladi. Sayyohlar bu mamlakatlarda bo‘lishganida sayohatlari davomida mazkur sohalar bilan tanishishadi, Gollandiya, Shveysariya va Italiya davlatlaridagi pishloqchilikning ham o‘ziga xos jihatlari bor. Ularning faoliyatini boshqa mamlakatdagilar e‘tirof etishadi, sayyohlar esa pishloqchilikni o‘rganish jarayonida yuqori sifatli pishloqdan tatib ko‘rish imkoniyatidan foydalanishadi, bu esa sayohatlariga mazmun kiritadi. Germaniya, Avstriya, Belgiya, Chexiya davlatlarida pivochilikka ixtisoslashtirilgan korxonalar ko‘p. Bu mamlakatlarga uyushtiriladigan sayohatlar sayohatlar zaminida aynan shu soha bilan tanishiladi.

Gastronomik sayyohlarning odatiy sayyohlardan farqli jihati ularning o‘zlarini eng kerakli bo‘lgan – soha oziq-ovqat sanoatiga yaqin tutishlaridir. Ular bunday sharoitlarda o‘zlarining ovqatlanish ratsioniga o‘zgartishlar kiritishadi. Bunda ular oziq-ovqatlarni baholashadi va sifat jihatdan qanchalik yuqori darajada ekanini anglashadi, lozim bo‘lganda tatib ko‘rgan holda baholashadi. Kasb-kori



gastronomiya bilan bog‘liq mutaxassislar (restoranlar xodimlari, oshpazlar, umumiy ovqatlanish shoxobchalari vakillari) sayyohlarga yuqori darajada xizmat ko‘rsatishga harakat qilishadi va aksar hollarda bunga erishadilar.

Bulardan anglashiladiki. O‘zbekiston Respublikasida ham gastronomik turizmga koproq etiborimizni qaratishimiz kerak. Shu tufayli millatimizning milliy taomlarini jahon miqiyosiga turli tanlovlarda, tadbirlarda namoyish etish mumkin.

Yurtimizning o‘ziga xos jo‘g‘rofiyasi bor. Tog‘larimiz, bog‘larimiz, yaylovlari cho‘llarimiz fayzi, shukuhi, tarovati o‘zgacha. Bir joyda tog‘ havosidan bahramand bo‘lsak, boshqa hududda cho‘l jazirasiga duch kelamiz. O‘z-o‘zidan ravshanki, ovqatlanish masalasi ham tabiatga monand ravishda bo‘ladi. Bir hududda qora choyni xush ko‘rishsa, ikkinchi hududda ko‘k choy ichiladi. Tog‘larimizdagi shifobaxsh giyohlarni nafaqat, mahalliy xalq, xorijlik sayyohlar ham yoqtirib qolishgan. Bunday giyohlar uzoq dashtliklarda, cho‘lu biyobonlarda

ham ko‘plab uchraydi. Ovqatlanish masalasida ham shunday. Masalan, Toshkent shahri lag‘moni bilan mashhur. Qashqadaryoda go‘shtli taom tayyorlashda takrorlanmas jihatlar bor. Xorazmda tuxumbarakni boplashadi. No‘xat tayyorlashda samarqandliklarning oldiga tushadigani yo‘q, Farg‘ona vodiysining, Sirdaryo va Jizzaxning, xullas, barcha viloyatlarning o‘z sevimli taomlari mavjud.

Xulosa va takliflar

Ko‘rinib turibdiki, imkoniyatlarimiz yetarli. Ammo ulardan foydalanish borasidagi muammolarimiz ham bir talay. Ko‘p hollarda yo‘llarimiz, mehmonxonalarimiz, madaniy va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalarimiz, boshqa ijtimoiy muassasalar haqida o‘ylab qolamiz. Uzoqqa borishning hojati yo‘q. Qay bir hududda bo‘lmaylik, muammolar yetarlicha. Bu yurtimizga kelayotganturislarga ba‘zan noqulay holatlarni yuzaga keltirirayapti.

Yana bir muammomiz shundaki, katta yo‘l bo‘ylaridagi, so‘lim havoli tog‘ bag‘rilaridagi ko‘pgina ovqatlanish shoxobchalarida xizmat ko‘rsatayotganlarning aksari xorijiy tillarni bilishmaydi, natijada sayyohlar bilan suhbat jarayonlari ko‘ngildagidek kechmaydi, Buning ustiga ularda xizmat va muomala madaniyati saviyasi ham past. Agar gastronomik turizmga aloqador bo‘lganlar masalaning shu jihatlariga ham e‘tibor qaratishsa, muammolar yechimi haqida chuqurroq o‘ylab ko‘rishsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Gastronomik turizmdagi ayrim muammolar haqidagini fikr yuritdik. Aslida sohada bajarilishi lozim bo‘lgan bunday vazifalar yanada ko‘proq. Ammo iste‘molchining, ayniqsa, xorijlik sayyohning ko‘nglini topish, uning uchun hamma sharoitlarni



yaratib berishning o'zi bo'lmaydi. Servis xizmati yaratish, atrof-muhitning obodonchiligini ta'minlash singari sohalarda ham yechimini kutayotgan muammolar ko'p. Ularning ijrosini ta'minlash birgina soha xodimlarigagina emas, mahalliy hokimliklar, mahallalar, keng jamoatchilikning nazoratiga ham bog'liq. Gastronomik turizm turizmning asosiy turlaridan biri ekanini endilikda mamlakatimizdagi yosh-u kekxa yaxshi biladi. Qayerga sayohatlar uyushtirilmasin, ularning markazida, albatta, gastronomik turizm turadi. Bu turizm yo'nalishi juda keng miqyosda anglanadi. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham gastronomik turizmning jadal

rivojlanayotgani quvonarli hol. Eng oddiy holatlardan biri ko'klam chog'larida yurtimizga tashrif aylagan xorijiy sayyohlar ko'pgina milliy taomlarimizga, xususan, sumalakka e'tiborsiz bo'lishmaydi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan turizmni, jumladan, gastronomik turizmni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilayapti. Bu haqda muhim qarorlar, farmonlar qabul qilinayapti. Ulardan biri Yurtboshimizning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli farmonidir. Bugun respublikamizning barcha hududlarida mazkur farmon ijrosi yo'lida bir qator ishlar amalga oshirilayapti. Shaharu qishloqlarimizda barpo etilayotgan biri-biridan shinam bo'lgan oshxonalar, choyxonalar va boshqa turdagi ovqatlanish muassasalarida yaratilayotgan qulayliklardan, bunday muassasalarning jihozlanishidan ko'ngil to'ladi, xalqimiz madaniyati, ma'naviyati oshib borayotganidan ko'ngillarda quvonch paydo bo'ladi. E'tibor qilganlar yaxshi bilishadi. Gastronomik turizmga aloqador ishlarga bugun shaharlarga nisbatan qishloqlarda e'tibor oshib borayapti. Buni biz davlatlar ahamiyatidagi katta magistrab yo'llar bo'ylarida, viloyatlararo yirik ko'chalar bo'ylarida bunyod etilayotgan ko'plab ovqatlanish shoxobchalari misolida ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tuxliyev, B. Safarov. Turizm asoslari -T.: „Yangi nashr" 2012
2. Aliyeva M. T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2005.
3. Mirzayev M. A. Turizm asoslari. Ma'ruzalar matni. – T., 2005
4. Pardayev M. Q. Turizm asoslari. Ma'ruzalar matni. – Samarqand. 2006
5. Tuxliyev I. S. va boshqalar. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010.
6. Nazarova G. G. va boshqalar. Turizm huquqi. – T.: Talqin, 2003.

Elektron saytlar: <http://www.uzbekembassy> <http://arm.sies.uz>
<https://www.researchgate.net>

